

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIQQAT VA XOTIRANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Samarqand davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Norbekova Sitara

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat va xotirasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida diqqat va xotiraning psixologik-pedagogik mohiyati ochib berilib, ularni rivojlantirishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshlang'ich ta'limdagi imkoniyatlari yoritilgan. Amaliy jarayonlarda qo'llanilgan mashq va topshiriqlar misolida diqqat va xotirani rivojlantirishning samarali usullari ko'rsatib berilgan. Maqola natijalari boshlang'ich ta'lim amaliyotida diqqat va xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarni samarali tashkil etishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, diqqat, xotira, innovatsion metodlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol ta'lim, muammoli ta'lim, pedagogik texnologiyalar, intellektual rivojlanish, bilish jarayonlari.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning bilish jarayonlari shakllanadigan, shaxsiy va intellektual rivojlanishiga poydevor yaratiladigan muhim davr hisoblanadi. Aynan ushbu bosqichda diqqat va xotira kabi asosiy psixik jarayonlarning rivojlanish darajasi keyingi ta'lim bosqichlaridagi o'quv muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqat va xotirani rivojlantirish masalasi

zamonaviy pedagogika va pedagogik psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda bilish jarayonlarini samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Ushbu maqolada diqqat va xotira tushunchalarining ilmiy mohiyati, ularni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati hamda boshlang'ich ta'limda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Diqqat tushunchasining psixologik-pedagogik mohiyati. Diqqat — bu shaxsning ongini muayyan ob'ektga, hodisaga yoki faoliyatga yo'naltirish va unda jamlash jarayonidir. Psixologik adabiyotlarda diqqat bilish jarayonlarini tartibga soluvchi va boshqaruvchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi. S.L. Rubinshteynning fikricha, diqqat inson ongining faol yo'nalganligi bo'lib, u barcha psixik jarayonlarning samaradorligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda diqqat asosan ixtiyorsiz xarakterga ega bo'lib, yorqin, qiziqarli va hissiy jihatdan ta'sirli axborotlar orqali tez jalb qilinadi. Shu bilan birga, ushbu yosh davrida ixtiyoriy diqqatni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ta'lim jarayonida topshiriqlarning aniq, tushunarli va yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etilishi diqqatning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida o'yin elementlari, muammoli vaziyatlar va interfaol topshiriqlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini uzoq vaqt saqlab turishga yordam beradi. Masalan, "Top va izohla", "Xatoni top" kabi mashqlar o'quvchilarning diqqatini faollashtirish bilan birga ularni tahliliy fikrlashga ham o'rgatadi.

Xotira tushunchasi va uning boshlang'ich ta'limdagi o'rni. Xotira — bu axborotni eslab qolish, esda saqlash va zarur paytda qayta tiklash jarayonidir. R.S. Nemov xotirani shaxsning hayotiy tajribasini mustahkamlovchi asosiy psixik jarayon sifatida baholaydi.

Boshlang'ich sinf yoshida xotiraning obrazli va mexanik shakllari ustun bo'lib, o'quvchilar materialni ko'proq ko'rish, eshitish va takrorlash orqali o'zlashtiradilar.

Ta'lim jarayonida xotirani rivojlantirish uchun ma'lumotlarni tizimli, mantiqiy va obrazli shaklda berish muhim ahamiyatga ega. Amaliy mashg'ulotlarda rasmlar, kartochkalar, sxemalar, jadval va klasterlardan foydalanish o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, matn mazmunini rasm orqali ifodalash yoki hikoya xaritasini tuzish xotiraning samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Diqqat va xotirani rivojlantirishning pedagogik ahamiyati nimada? Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqat va xotirani rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu psixik jarayonlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi o'quvchilarda o'quv materialini o'zlashtirishda qiyinchiliklar, tez charchash, topshiriqlarni oxirigacha bajarmaslik, darsga halaqit qilish kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Aksincha, diqqat va xotiraning rivojlanganligi o'quv faoliyatining ongli, tizimli va barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Diqqatni rivojlantirish orqali o'quvchilarda topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashish, dars jarayonida faol ishtirok etish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Xotirani rivojlantirish esa bilimlarning mustahkam saqlanishi, ularni amaliy faoliyatda qo'llash hamda keyingi mavzularni o'zlashtirish uchun zarur asos yaratadi.

Pedagogik kuzatuvlarim shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida diqqat va xotiraga qaratilgan maxsus mashqlarni muntazam qo'llash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, dars boshida qisqa "diqqatni jamlash mashqlari", dars oxirida esa "xotirani mustahkamlash topshiriqlari"ni berish o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar — bu ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan holda tashkil etish, uning faolligi va mustaqilligini oshirishga qaratilgan pedagogik qarashlar, metodlar va texnologiyalar majmuasidir. Ushbu yondashuvlarda

o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki o'quv faoliyatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlar diqqat va xotirani rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Chunki interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va faoliyatga asoslangan yondashuvlar o'quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtiradi. O'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni faol izlanish jarayonida o'zlashtiradi. Zamonaviy yondashuvlar doirasida darsni rejalashtirishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinadi. Bu esa diqqatning barqarorligi va xotiraning samarali ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion pedagogik metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat va xotirasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dars jarayonining samaradorligini oshiradi.

Amaliy faoliyat jarayonida "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Bumerang" kabi metodlardan foydalandim. Ushbu metodlar o'quvchilarning diqqatini dars davomida faol saqlashga, xotirada ma'lumotlarni mantiqiy bog'lash orqali mustahkamlashga yordam berdi. Masalan, yangi mavzuni o'rganishda klaster metodidan foydalanish o'quvchilarning asosiy tushunchalarni tizimlashtirib eslab qolishiga xizmat qildi. Shuningdek, o'yin texnologiyalari orqali tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqatga aylantirish imkonini berdi. "Kim tez va to'g'ri?", "Eslab qol va davom ettir" kabi o'yinlar xotira jarayonlarini faollashtirishda samarali bo'ldi.

Muammoli ta'lim asosida diqqat va xotirani rivojlantirish. Muammoli ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlardan biridir. Ushbu yondashuvda o'quvchilar tayyor bilimni qabul qilmaydi, balki muammo vaziyatlarini hal etish jarayonida mustaqil fikrlaydi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Bu jarayon diqqatning barqarorligini oshirish hamda xotiraning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratadi.

Amaliy faoliyatim davomida muammoli ta'lim elementlaridan foydalanib, o'quvchilarga savol va topshiriqlarni muammo shaklida berdim. Masalan, matn bilan ishlash jarayonida "Agar qahramon boshqacha yo'l tutganida nima bo'lardi?", "Qahramonning o'rnida siz bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz" kabi savollar o'quvchilarning diqqatini faol holatda ushlab turdi va xotirada matn mazmunining chuqurroq saqlanishiga yordam berdi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar o'z fikrini asoslab berishga intildi. Bu esa nafaqat diqqat va xotirani, balki tafakkur va nutq faoliyatini ham rivojlantirdi.

Faoliyatga asoslangan yondashuvning ahamiyati. Faoliyatga asoslangan yondashuv boshlang'ich ta'limda o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuvda o'quvchi bilimni eshitish orqali emas, balki amaliy faoliyat jarayonida egallaydi. Bu holat diqqat va xotiraning tabiiy ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida topshiriqlarni juftlikda yoki kichik guruhlarda bajarish orqali o'quvchilarning bir-biri bilan hamkorlikda ishlashini ta'minladim. Bunday faoliyat o'quvchilarda diqqatni bir nuqtaga jamlash, topshiriqni oxirigacha bajarish hamda xotirada ma'lumotlarni mantiqiy bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Masalan, guruhli ish jarayonida berilgan jadval yoki sxemani to'ldirish vazifalari o'quvchilarning vizual xotirasini mustahkamladi. Har bir guruhning o'z ishini taqdim etishi esa eshitish xotirasini rivojlantirishga xizmat qildi.

Amaliy mashqlar orqali diqqatni rivojlantirish Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tizimidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Amaliy jarayonda darsning turli bosqichlarida qisqa, ammo mazmunli mashqlarni qo'lladim. Masalan, dars boshida "Diqqatni jamlash mashqi" sifatida rasm yoki belgilar ketma-ketligini berib, ularni ma'lum vaqt ichida topish topshirig'ini bajartirdim. Bu mashq o'quvchilarning diqqatini tezda darsga yo'naltirishga yordam berdi. Dars davomida "Xatoni top" mashqi orqali diqqatning barqarorligini oshirishga erishildi. O'quvchilar matndagi yoki misoldagi xatolarni aniqlash jarayonida diqqatini uzoq vaqt saqlab turishga harakat qildi. Bu esa diqqatning ixtiyoriy shaklini rivojlantirdi.

Xotirani rivojlantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar. Xotirani rivojlantirishda eslab qolish, esda saqlash va qayta tiklash jarayonlarini kompleks holda tashkil etish muhimdir. Amaliy faoliyatimda xotirani rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan muntazam foydalandim. Masalan, dars oxirida “Eslab qol va aytib ber” topshirig‘i orqali o‘rganilgan mavzuni qisqa vaqt ichida qayta tiklash mashqlari o‘tkazildi. Bu mashq o‘quvchilarning mantiqiy va og‘zaki xotirasini rivojlantirdi.

Shuningdek, jadval va sxemalar asosida mavzuni umumlashtirish topshiriqlari vizual xotiraning rivojlanishiga xizmat qildi. O‘quvchilar ma’lumotlarni rasmiy shaklda ko‘rib, uni xotirada mustahkamroq saqlashga erishdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining diqqat va xotirani rivojlantirishdagi imkoniyatlari. Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqat va xotirasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. AKT vositalari dars mazmunini ko‘rgazmali, qiziqarli va tushunarli shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning ixtiyorsiz diqqatini faollashtirib, uni asta-sekin ixtiyoriy diqqatga aylantirishga xizmat qiladi.

Amaliy faoliyat jarayonida slaydlar, qisqa videoroliklar, interaktiv topshiriqlar va elektron taqdimotlardan foydalandim. Masalan, yangi mavzuni tushuntirishda rangli tasvirlar va sxemalardan foydalanish o‘quvchilarning vizual diqqatini kuchaytirdi hamda xotirada ma’lumotlarning mustahkam saqlanishiga yordam berdi. Shuningdek, AKT asosida tashkil etilgan savol-javoblar va test topshiriqlari o‘quvchilarning eshitish va mantiqiy xotirasini rivojlantirishga xizmat qildi. O‘quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘z bilimlarini tezkorlik bilan qayta tiklashga o‘rgandi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida diqqat va xotirani rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida kichik pedagogik tajriba elementlaridan foydalandim. Tajriba jarayonida darslarda interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar tizimli ravishda qo‘llandi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabati, faolligi va topshiriqlarni bajarish

sifati kuzatildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, diqqat va xotirani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar muntazam qo'llanilganda o'quvchilarning darsdagi faolligi oshdi, topshiriqlarni bajarish vaqti qisqardi hamda o'zlashtirish darajasi yaxshilandi. Kuzatuvlar asosida o'quvchilarning dars davomida diqqatni uzoqroq saqlab turish, mavzuni eslab qolish va qayta aytib berish ko'nikmalari shakllanib borayotgani aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat va xotirasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Interfaol metodlar, faoliyatga asoslangan yondashuv, muammoli ta'lim va AKT vositalari o'quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtiradi hamda ta'lim sifatini oshiradi.

Ushbu yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Natijada o'quvchi shaxsining intellektual rivoji, mustaqil fikrlash qobiliyati va o'quv faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabati shakllanadi.

Boshlang'ich ta'limda diqqat va xotirani rivojlantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Tadqiqot jarayonida diqqat va xotiraning psixologik-pedagogik mohiyati ochib berildi, ularni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metod va texnologiyalar amaliy misollar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, diqqat va xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimli va maqsadli tashkil etilganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati sezilarli darajada yaxshilanadi. Ushbu xulosalar keyingi bobda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
2. Nemov R.S. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Logos, 2008.

4. G‘oziev E.G‘. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
5. Qodirova F.R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1977.
7. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
8. Klarin M.V. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Moskva: Pedagogika, 2016.
9. Davletshin M.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2012.
10. Tojiyeva M.M. Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta’lim metodlari. – Toshkent: TDPU, 2019.